



SEMANTIC CHARACTERISTICS OF TERMS USED IN THE 5TH GRADE MOTHER LANGUAGE TEXTBOOK.

Sevinova Diyora Uygun qizi

Teacher of secondary school No. 2, Sokh district, Fergana region

e-mail diyorasevinova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17341463>

ARTICLE INFO

Received: 05st October 2025

Accepted: 10th October 2025

Online: 13th October 2025

KEYWORDS

term, homonym, synonym, term, ottenka, artistic style, function, denotative

ABSTRACT

It is known that terms, like simple words, are formed from words and roots existing in the general and special lexicon. The system of terms of the Uzbek language, like other related Turkic languages, includes existing structural types, namely simple, artificial, compound, abbreviation and word combinations. There are enough tasks to be done to improve Uzbek terminology. Today, the Uzbek language is undergoing a comprehensive process of improvement in the field of terminology. Terms are formed by their own characteristics. They are mainly used in a denotative (meaning) sense. However, it is known that live speech is very rich and colorful, and in it terms can also lose their meaning, among which you can find phenomena such as homonymy, synonymy, polysemy, and in terms of the structure of terms, you can see that they have their place in our language.

It is advisable to create a short dictionary of terms in school textbooks, especially for the 5th grade native language textbook, and implement it in a way that is understandable to students.

СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТЕРМИНОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В УЧЕБНИКЕ РОДНОГО ЯЗЫКА ДЛЯ 5-ГО КЛАССА.

Севинова Диёра Уйгун кызы

Учитель средней школы №2 Сохского района Ферганской области

e-mail diyorasevinova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17341463>

ARTICLE INFO

Received: 05st October 2025

Accepted: 10th October 2025

Online: 13th October 2025

KEYWORDS

ABSTRACT

Известно, что термины, как и простые слова, образуются от слов и корней, существующих в общей и специальной лексике. Терминосистема



термин, омоним, синоним,
термин, оттенок,
художественный стиль,
функция, денотат

узбекского языка, как и других родственных тюркских языков, включает в себя существующие структурные типы, а именно простые, искусственные, сложные, аббревиатуры и словосочетания. Предстоит проделать значительную работу по совершенствованию узбекской терминологии. Сегодня узбекский язык переживает комплексный процесс совершенствования в области терминологии. Термины образуются по своим собственным особенностям. Они используются в основном в денотативном (смысловом) значении. Однако известно, что живая речь очень богата и красочна, и в ней термины также могут терять своё значение. Среди них можно выделить такие явления, как омонимия, синонимия, полисемия, и, судя по структуре терминов, они занимают своё место в нашем языке.

Целесообразно создать краткий словарь терминов в школьных учебниках, особенно для учебника родного языка для 5-го класса, и сделать его понятным для учащихся.

5-SINF ONA TILI DARSLIGIDA QO'LLANILGAN TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATI.

Sevinova Diyora Uyg'un qizi

Farg'ona viloyati So'x tumani 2-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi e-mail
diyorasevinova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17341463>

ARTICLE INFO

Received: 05st October 2025

Accepted: 10th October 2025

Online: 13th October 2025

KEYWORDS

termin, omonim, sinonim,
atama, ottenka, badiiy uslub,
funktsiya, denotativ

ABSTRACT

Ma'lumki, terminlar oddiy so'zlar singari umumadabiy va maxsus leksikada bor bo'lgan so'z va o'zaklardan yasaladi. O'zbek tili terminlari sistemasi o'zga qarindosh turkiy tillardagi singari mavjud struktur turlar, ya'ni sodda, yasama, qo'shma, qisqartma va so'z birikmalarini o'z ichiga oladi. O'zbek terminologiyasini takomillashtirish borasida qilinishi lozim bo'lgan vazifalar yetarlichadir.. Bugungi kunda o'zbek tili soha terminologiyasi har tomonlama takomillashish jarayonini boshidan kechirmoqda. Terminlar o'ziga xos xusiyatlarga tashkil topgan. Ular asosan



denotativ (o'z ma'no) ma'noda qo'llaniladi. Ammo malumki, jonli nutq juda boy va rang barang unda terminlar ham o'z ma'nosini yoqotishi mumkin ekan ular orasida omonimlik, sinonimlik ko'p manolik kabi hodisalarni uchratish mumkin va terminlar tuzilishi jihatidan ham tilimizda o'z o'rniga egaligini ko'rish mumkin.

Maktab darsliklarida ham xususan 5- sinf ona tili darsligi uchun qisqacha terminlar lug'atini yaratib o'quvchilar uchun tushunarli holada tadbqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Terminning kontsepsiya bilan o'zaro bog'liqligidan tashqari, zamonaviy terminologiyada atama javob berishi kerak bo'lgan boshqa bir qator muhim talablar mavjud: bir ma'nolilik, aniqlik, adabiy til me'yorlariga muvofiqligi, qisqalik, emotsionallik va ekspressivlikning yo'qligi; motivatsiya, izchillik va boshqalar. Ushbu shartlar atama uchun ideal talablarni ifodalaydi, ammo amalda ularga mos kelmaydigan, ammo kontseptual maqsadlarga muvaffaqiyatli xizmat qiladigan atamalar topiladi. Shunday qilib, ayrim talablarning majburiyligi masalasi hozirda juda munozarali bo'lib qolmoqda. Tarixiy manbalarda muayyan narsa-predmet, tushunchani ifodalashda ba'zan sinonimik qatorlarning ishtirok etgani kuzatiladi. Masalan: bek-amir, tuman-nohiya, o'ng qo'l-burang'ar, mang'lay – hiravul, yalavach-rasul-qosid va h.k. Terminologiyadagi sinonimlar o'zgacha tabiat va boshqa funksiyalarga ega bo'lgani bois (stilistik vazifa bajarmaydi) ayrim tilshunoslar tomonidan dubletlar deb nomlanadi. Sinonimiya (variantdorlik) terminologik sistema shakllanishining boshlang'ich davrlariga xos, bu davrda variantlar miqdoran ko'p bo'lib, eng maqbul termini tanlash hodisasi hali reallashmagan edi.

5-sinf ona tili darsligidan to'plangan terminlar ayrimlar o'z guruhi ichida sinonimlik hosil qiliadi. Ular quyidagilar.

Qazilma va resurs geol. 1.Yer ostidan qazib olinadigan narsalar (ko'mir, neft, ruda va shu kabilar).

Foydali qazilmalardan olinadigan mineral o'g'itlar (Gazetadan)

2. arxeol. Yer ostida qolib ketgan va qazib topiladigan qadimiy yodgorliklar yoki ularning qoldiqlari; topilma, topildi.

Resurs Inson turmush sharoitini yanada yaxshilash uchun zarur bo'lgan narsalarning mavjud zaxirasi.

Ichki resurslar. Xomashyo resurslari. O'zbekistonning tabiiy resurslari.

Narx, baho, qiymat Biror narsani pul bilan o'lchanadigan arzon va qimmatli belgisi. Qiymat kam qo'llaniladi. Ibodilla katta-kichik taroqlarning narxlarini birma-bir aytdi

Otimning o'mildirig'iga ularning havasi kelib, bahosini so'radilar. A. Qodiriy, Kichik asarlar.

Binokorlik ishlarining qiymati ancha kamaytirildi.



Pul,aqcha,mullajiring,yakan Oldi-sotdi yoki to'lov muomalalarida narx, baho, qiymat o'lchovi bo'lgan metall yoki qog'oz belgi; Aqcha oddiy nutqda juda kam qo'llaniladi.Mullajiring so'zlashuv uslubiga xos.Yakan so'zida jargonlik xususiyati ustun.

Yo'lkiraga pulimiz, piyoda qaytishga ilojimiz bo'lmaganidan qolib ketdik.(M. Ismoil, Farg'ona tong otguncha)

Xazinamda har qancha zar, har qancha aqcha bo'lsa, yurtning obodonligi uchun sarf etishga va'da beraman.(Uyg'un va I. Sulton, Alisher Navoiy)

Esing borida etagingni yop, degan mashhur naqlga amal qilmasak bo'lmas. Bir yoqdan yakanning qo'ri qochyapti (J. Abdullaxonov, To'fon)

Surat va rasm Rassom tomonidan chizilgan tasvir, rasm.

Surat solmoq. Tungi bog'lar suratga o'xshar, Har bir chiziq aniq va qora. Kunduzi u men kabi yashar, Tunda — qotib qolgan xotira.

Rasmlar bilan bezatilgan kitob. Rasm darsi. Rasm olmoq. Rasm solmoq.

Foyda,naf,manfaat va hayon biror narsadan keladiga yahshi natija yahshi oqibat.Foyda keng ma'noda va keng qo'llaniladi.Naf va manfaat kitobiy.Hayon eskirgan shakli.Biror kimsa yoki narsa uchun bo'ladigan naf, manfaat; ijobiy natija.

Yolg'on aytib, foyda ko'rsang, oxiri zarar toparsan

Yangi mashinalar paxtachilikda juda katta naf keltirmoqda. Naf qilmoq. Dori hech naf qilmadi

Xalq yo'lida jonni ayamaslik darkor. O'z manfaatimizdan xalq manfaatini yuqori qo'yaylik. (Uyg'un, Navbahor)

Bir miri hayon, uch miri ziyon.(Maqol)

Chiqim ,sarf,harajat va xarj .Biror narsa uchun ishlatiladigan va shu narsa evasiga beriladigan pul.

To'y chiqimlari. Chiqim daftari. Chiqimiga qarab kirimi. (Maqol)

Paxtadan olingan qo'shimcha hosil barcha qilgan sarflarimizdan ancha ortiq bo'ldi. (Gazetadan)

Odamlarning ko'zlarida, harakatlarida qandaydir notinchlik sezdi . (Yo'lchi. Oybek, Tanlangan asarlar)

Yo'l xarji. To'y xarji.To'yga qilgan xarjini ol, bu yog'iga yopiqli qozon yopiqligicha qolsin, dedik. (S. Ahmad, Ufq)

Yuz,bet,aft,bashara,chehra,jamo,diyodor,oraz,uzor,ruhsor.Kishi boshining old qismi old tomon. Bet so'zi qo'llanishi bilan yuz so'ziga juda yaqin ammo yuzga nisbatan salbiy o'ttenkaga ega. Bashara so'zida salbiy o'ttenka aft so'ziga nisbatan kuchli. Chehra so'zi ijobiy o'ttenkaga ega. Jamol so'zi esa badiiy uslubga xos.Uzor,oraz,ruhsor eskirgan.

Yurak, qalb,ko'ngil siyna va ko'krak.anat. Odam va hayvonlar ko'krak qafasi ichida joylashgan, ularning qon aylanish sistemasidagi muskul qopchiqqa o'xshash markaziy a'zo.

Sog'lom yurak Yurakning urishi. Qalb kitobiy.Siyna poetik uslubga xos.Siyna ko'krak shu ma'noda juda kam qo'llaniladi.

Ko'chma Kishining his-sezgisi, ruhi, kechinmalarining ramziy markazi, ular saqlanadigan joy; qalb, dil.

Paxtazorda bo'lib o'tgan janjal Oyqiz yuragida chuqur iz qoldirdi.



Ko'nglida yaxshi niyatlari ko'p.

Men uzoq vaqtgacha uxlay olmay yotdim, nafasim qisilib, qalbm notinch tepardi.
(M. Jabborov, Sevinch)

Yara va jarohat.tib.Teri yoki shilliq pardaning, shuningdek, teri osti to'qimalarining turli sabablarga ko'ra nobud bo'lgan qismi ko'chib, uning o'rnida hosil bo'ladigan nuqson.Donli ko'ylakni Qoratoy ehtiyot bilan tilib, yarani ochdi. Yara ko'krakda, yurakka yaqin: undan quyuq qon hali ham siljib turar edi.(Oybek, Tanlangan asarlar)

Bir chol jarohatimga kigiz kuydirib bosdi va boldirimni latta bilan bog'lab qo'ydi. (A. Qahhor, O'tmishdan ertaklar)

Chizma termin ma'nosida Qog'oz, kalka, taxta, yer va shu kabilar yuziga chizilgan loyiha; maxsus chizmachilik asboblari yordamida ma'lum qoidalarga asosan bajarilgan grafik tasvir.

Chizmalarga nazar tashlasak, nozik did bilan yaratilgan ulkan binolar loyihasi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.(Gazetadan) Ustalar o'z ishlari uchun chizma naqshlar buyurar edilar.(S. Ayniy, Esdaliklar)

To'plangan terminlarning omonimlik xususiyatiga ko'ra tasniflanishi:

Million

Snq. Son1 000 000 raqami va shu raqam bilan ifodalangan son, miqdor.

Besh million tonna paxta. Million so'm pul.

Tangens To'g'ri burchakli uchburchakda o'tkir burchak qarshisidagi katetning boshqa katetga nisbatidan iborat trigonometrik funksiya

Milliard snq. Son1 000 000 000 raqami va shu raqam bilan ifodalangan son, miqdor.

Ikki milliard so'm. Milliardni millionga bo'lmoq.

Raqam Sonni ifodalovchi grafik belgi.

Bu raqamlar har qanday balandparvoz gaplardan qudratli va rad qilib bo'lmas faktlardir. (S. Ahmad, Ufq) Sen dunyoga kelding, yurtim bolasi, o'n sakkizinchi million raqami bilan.Yoshlik Tabiiyki, bu raqam sizni dahshatga soladi.(Gazetadan)

2. Biror son bilan ifodalangan miq-dor, ko'rsatkich.

Raisning oxirgi yakunlovchi so'zi, Qo'chqorovning nutqiday, raqamlar, muvaffaqiyatlar, maqtovdan nari o'tmadi.(S. Anorboyev, Oqsoy)

Tenglama Tarkibida o'zaro bog'langan ikki yoki bir necha noma'lum kattaliklar (sonlar yoki funksiyalar) bo'lgan matematik tenglik.

Birinchi darajali tenglama. Kvadrat tenglama. Kimyoviy reaksiyaning shartli ravishda simvollar va formulalar bilan yozilishi kimyoviy tenglama deb ataladi.

Musulmon. Islom dinidagi kishi.

[Qozi:] Sen bir kambag'al musulmonsan. O'z joningga jabr qilma deymiz.(Hamza, Boy ila xizmatchi) Hindiston musulmon boylari ham ezoz-ikrom bilan qasrlar, saroylarga ega bo'ldilar.(Oybek, Nur qidirib)

2. Musulmon (erkaklar ismi).

Jannat din.Begunoh, taqvodor kishilar u dunyoda yashaydigan rohat-farog'atli joy, behisht.

Qoshing bilan ko'zing sho'x, ilohi o'lmagaysan, Jannatdagi hurlarning birovi bo'lmagaysan.Oq olma, qizil olma.



2. ko'chma. Hamma narsa muhayyo bo'lgan, obod, rohatbaxsh, xushmanzara joy.

Bo'lsin deymiz jahon bo'ylab Insonlar yeri jannat. (M. Shayxzoda.)

Safo maxsumning nigohi shu jannat bog'lar, dalalarda kezsa ham, o'y-xayoli boshqa yoqda. (H. G'ulom, Zamin yulduzlari) Yoz paytlari ularning [Azizaning] bog'i jannat bo'lib ketadi. (O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol.)

3. Jannat (xotin-qizlar ismi).

Sajdagoh din. Sajda, ibodat qilinadigan joy; qadamjo.

Siz, bu dunyoda neki sajdagoh bo'lsa, yalinib so'rayman, bir lahza bo'lsa ham ro'shnolik ko'ring. (A. Nurmurodov, Urush bevalari)

2. ko'chma Muqaddas, aziz joy.

Mana o'sha uy, mana mening sajdagohim. (T. Jalolov, Oltin qafas)

Masjid musulmonlarning jam bo'lib, namoz o'qiydigan ibodatxonasi.

Mahalla masjidida xufton azoni aytiladi, shundan bir oz keyin Ra'nolar darvozasi ham g'iqillab ochildi. (A. Qodiriy, Mehrobdan chayon)

Madrasa tar. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, shuningdek, chor Rossiyasining ko'pchilik musulmonlar yashaydigan hududlarida diniy oliy o'quv yurti.

Nodira Anvarni o'qitmoqchi, hatto madrasalarga yubormoqchi. (A. Qodiriy, Mehrobdan chayon)

2. O'zbekiston musulmonlari idorasi qoshidagi diniy maktab

Mo'min. Ollohning borligiga iqror bo'lgan, imon keltirgan kishi; musulmon.

[Safar bo'zchi] Shu ka'batulloning ichida o'tirib, yolg'on gapirgan odam musulmon emas, kishining qasamiga ishonmagan ham yetti mazhabda mo'min emas.

(A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.)

2. ko'chma Yuvosh, beozor, muloyim.

Mo'min odam, Muharram ko'chada soddagina, mo'mingina ko'ringan bu qizning shunchalik sho'xliklari borligini o'zi ko'rmay, birov aytganda, aslo ishonmasdi. (Shuhrat, Shinelli yillar)

3. Mo'min (erkaklar ismi)

Tibbiyotga oid toplangan terminlar monosematik terminlar hisoblanadi Ular quyidagilar: pandemiya, ortopediya, nevrologiya, operatsiya, astma.

2. Jonivor yoki o'simlik organizmining anatomik, gistologik va boshqalar jihatdan o'rganish jarayonida kuzatish yoki tekshirish uchun tayyorlangan qismi.

Anatomik preparat. Baqa yuragining preparati. Preparatlar ko'rgazmasi.

To'plangan terminlarning tahlilidan xulosa shuki, umumtilda sodir bo'luvchi leksik-semantik jarayonlar terminologiyada qisqartirilgan ko'lam yoxud o'zgargan tarzda voqelanadi. Terminologiyadagi polisemiya asosan metaforik va metonimik ma'no ko'chishi oqibatida yuzaga chiqadi. Omonimiya ko'p ma'noli so'zlarning boshqa-boshqa leksemalarga aylanishi jarayoni natijasi bo'lib, fanlararo va sistemalararo omonimiya nomi ostida terminologiyadan joy oladi. Soha terminologiyasining dastlabki shakllanish bosqichlarida o'ta faol bo'lgan sinonimlarning ma'noviy ko'rinishi ularga xos egalik qilish va aniqlik kiritish singari vazifalar bilan amalga oshadi. Fan tilida antonimlarning ikki turi, ya'ni leksik hamda so'z yasovchi antonimlar o'z ifodasini topadi. Shu jumladan darslikda



keltirilgan terminlarning omonim va sinonim qatorini shakllantirib o'quvchiga tushuntish ,mavzuning tushunarlik darajasini oshiradi va o'quchilar ongida oson o'rnashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. 5-sinf ona tili darslik -T.G'afur.G'ulom .2020
2. Safarov SH. Pragmalingvistika. –T.:Fan, 2008;
3. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. –T. Fan, 2007;
4. Nurmonov A. Hozirgi O'zbek adabiy tili. –T.: Sharq, 2002. –B. 62-63.
5. Mengliyev.B, Sayfullayeva .R. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo'lida” Marifat “gazetasi 2007-yil 27-may